Biologiya

8 sinf

48 - dars

Mavzu: Bosh miya katta yarimsharlarining tuzilishi




Bosh miya yarimsharlari ikki qavatdan iborat:

Kulrang modda - tashqi po'stloq qavat;

Oq moddadan - ichki qavat.

- Qalinligi 2,5 3,0 mm;
- Pushta va egatlardan iborat;
- Miya po'stlog'ida 14-16 mlrd hujayralar joylashgan.
- Miya po'stlog'i pushtalarining soni barcha odamda deyarli bir xil, lekin ularning tuzilishi bamisoli qo'l kafti chiziqlari singari xilma-xil;
- Agar miya po'stlog'ining pushta va egatlari yozib tekislansa, uning umumiy sathi 1468-1670 cm2 ni tashkil qiladi.




Peshana
Miya katta yarim sharlari qismlari
Ensa
Chakka
Tepa

Bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'i mikroskopda tekshirilganda, undagi nerv hujayralari olti qavat bo'lib joylashganligi aniqlangan.



Bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining turli qismlarida joylashgan nerv hujayralarining po'stloq sathi funksiyasiga ko'ra uchta zonaga bo'linadi:



Sezish zona

- Bu zonadagi nerv hujayralari to'plami odam tanasining barcha sezgi organlarining oliy markazi hisoblanadi.
- Bu markazlar teri, ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilish kabi sezgi organlari retseptorlaridan impuls qabul qiladi.




Harakat zona

- Bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ining harakat zonalaridagi nerv hujayralari to'plami muskullar, paylar, bo'g'imlar, suyaklarning retseptorlaridan impuls qabul qilib, odam tanasining barcha qismlari harakatini boshqaruvchi oliy nerv markazi vazifasini bajaradi.



Assotsiativ zona

- Bu zonaning nerv hujayralari odam tanasining to'qima va organlari bilan nerv yo'llari orqali bog'lanmagan,
- Ular miya po'stlog'ining turli qismlaridagi nerv hujayralarini bir-biri bilan bog'laydi;
- Bu zonalar sezgi va harakatlanish organlaridan kelgan ta'sirni analiz va sintez qiladi.




Bosh miya katta yarimsharlarining po'stloq qismi odam oliy nerv faoliyatining fiziologik asosi hisoblanadi. Odamning fikrlashi, ongi, o'zlashtirishi, eslab qolishi, boshqalar bilan muomala qilishi, madarriyati, bilim olishi, hunar o'rganishi, murakkab harakatlarni bajarishi miya po'stlog'ining faoliyatidir.




Miya po'stlog'ining faoliyatidir
Fikrlashi
Ongi
O'zlashtirishi
Eslab qolishi
Boshqalar bilan muomala qilishi
Madarriyati
Bilim olishi
Hunar o'rganishi
Murakkab harakatlarni bajarishi

Miya po'stlog'imng turli qismlarida har xil funksiyalarni boshqaruvchi nerv markazlari





Uyga vazifa

Darslikda berilgan mavzuni o‘qib o‘rganib, tayanch so`zlarni tahlil qiling

